

Sog‘lom avlod – sog‘lom kelajak Salomatlik

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning shu yil 18 iyunda qabul qilingan “Bolalikdan nogironlar tug‘ilishining oldini olish uchun tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, homilador ayollar va chaqaloqlar patologiyasini barvaqt aniqlash borasida muhim vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar sog‘lom avlodni voyaga yetkazishdek olijanob maqsadga xizmat qilmoqda. Millat genofondini saqlash, nogironlik va nogiron farzandlar dunyoga kelishining oldini olish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Joylarda homilador ayollar va chaqaloqlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish orqali irsiy kasalliklarni mumkin qadar erta aniqlovchi skrining markazlari tashkil etildi. Onalar va bolalarni, shuningdek, nikohlanuvchi yoshlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish borasidagi ishlar ham o‘z samarasini bermoqda. Prezidentimizning Vazirlar Mahkamasining shu yil 8 fevraldagagi majlisida so‘zlagan ma’ruzasida ta’kidlanganidek, keyingi o‘n yil ichida onalar va bolalar o‘limi sezilarli darajada kamaydi. Go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi 2006 yilda 11 foizga pasaygani tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining tobora yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi.

Bu jahada qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarda tibbiyot muassasalari jahon andozalariga mos jihozlanayotgani, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari takomillashayotgani ham muhim o‘rin tutmoqda.

Qarshi shahrida 1998 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotgan «Ona va bola» skrining markazi so‘nggi besh yilda eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan boyitildi. Sog‘liqni saqlash vazirligi, «Sog‘lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg‘armasi tomonidan qon tarkibini chuqr tahlil qiladigan va ultratovush diagnostikasi apparatlari o‘rnatildi. Markazda hozirgi vaqtida perinatal va neonatal skrining tekshiruvlari bo‘yicha 12 mutaxassis-vrach ish olib bormoqda. O‘tgan davr mobaynida markazda onalar va bolalardagi nasldan-naslga yashirin o‘tadigan irsiy kasalliklar, qalqonsimon bez kasalliklarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha katta tajriba to‘plandi.

– Markazimizda genetik laboratoriya, kunduzgi maslahat bo‘limi ishlab turibdi, – deydi “Ona va bola” skrining markazi bosh vrachi Ziyoda Avloqulova. – Shu yilning o‘tgan davrida 24 ming 800 chaqaloq neonatal skrining qilinib, kasallik aniqlangan bolalar dispanser nazoratiga olindi. 3 ming 700 dan ziyod homilador ayol ultratovush va biokimiyoviy tekshiruvlardan o‘tkazildi, ayrimlariga zarur tibbiy yordam ko‘rsatildi. Markazimiz mutaxassislari davolash-profilaktika ishlari bilan birga, aholi o‘rtasida, qishloq vrachlik punktlari, ta’lim muassasalari va mahallalarda bolalar nogironligining oldini olish, ayollar reproduktiv salomatligini yaxshilash va sog‘lom oilani shakllantirishning ahamiyatiga doir tushuntirish ishlarini olib bormoqda.

A.Muhammadiyev